


II. SANOAT



Viloyat sanoat korxonalarida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayonlarining jadallashishi natijasida 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida 18 721,3 mld. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi ta’minlanib, ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 2023 yilning tegishli davriga nisbatan 107,0 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida ko‘proq qayta ishlash sanoatining ulushi 97,2 foizni tashkil etdi (2023 yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 107,9 %). Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash ulushi 1,6 foizni (ishlab chiqarish indeksi 113,3 %), suv bilan ta’minalash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish ulushi 0,5 foizni (ishlab chiqarish indeksi 101,0 %), tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash ulushi 0,7 foizni (ishlab chiqarish indeksi 61,4%) tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibi (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)



■ 2022-yil yanvar-sentabr ■ 2023-yil yanvar-sentabr ■ 2024-yil yanvar-sentabr



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini
ishlab chiqarish
(2024 yil yanvar-sentabr)**


<i>Ko'rsatkichlarnomi</i>	<i>Mldr. so'm</i>	<i>2023 yil yanvar-sentabriga nisbatan fizik hajm indeksi</i>
Jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi	18 721,3	107,0
Tog'–kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	140,6	61,4
<i>Shundan:</i>		
tog'–kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat	140,6	61,4
Qayta ishlash sanoati	18 199,5	107,9
<i>shundan:</i>		
oziq–ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	1 936,9	129,7
ichimliklar ishlab chiqarish	38,9	13,8
to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	2 790,2	115,9
kiyim ishlab chiqarish	583,9	93,2
teri va unga tegishli mahsulotlarni ishlab chiqarish	22,6	72,1
yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	45,6	101,7
qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish	105,0	137,9
yozilgan materiallarni nashr etish va aks ettirish	6,6	261,9
kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	407,9	69,7
Farmasevtika mahsulotlarini va preparatlarini ishlab chiqarish	0,3	182,5
rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	275,5	84,2

davomi

Ko‘rsatkichlarnomi	Mlrd. so‘m	2023 yil yanvar-sentabriga nisbatan fizik hajm indeksi
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	-	-
boshqa nometal mineral mahsulotlari ishlab chiqarish	2 105,4	95,0
metallurgiya sanoati	32,4	15,8
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	134,4	99,1
elektr uskunalarini ishlab chiqarish	619,8	168,5
kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	27,1	221,2
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	5,9	7,1
Mebel ishlab chiqarish	177,2	93,2
boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	121,3	120,6
mashina va uskunalarini ta’mirlash va o’rnatish	45,3	297,4
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish	8 717,3	116,7
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash	292,3	113,3
Suv bilan ta’minalash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	88,9	101,0


Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarida eng yuqori ulushi qayta ishlash sanoati korxonalari (97,2 foiz) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida sanoat korxonlari tomonidan 18 721,3 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi va o‘tgan yilning shu davriga nisbatan ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 107,0 foizni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoat (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)

2022-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida



2024- yilning yanvar-sentabr oyilarda ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 18 199,5 mlrd.so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 97,2 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)

Paxta tolasi



O'simlik yog'i (tozalangan)




Tirkotaj polotnolar



Yumshoq bug'doy va spelta uni





**Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarining hissasi
(foiz hisobida)**




Metallurgiya sanoati

0,2 %

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,8 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 147,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,2 % ni fizik hajm indeksi esa 15,8 % ni ishlab chiqarish hajmi 32,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

11,2 %




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 12,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 120,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-sentabr oylar yakunlariga ko'ra, ulushi 11,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 5,0 % ga kamayib ishlab chiqarish hajmi 2 105,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2,2 %




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 % ni, fizik hajm indeksi esa 134,4 % ga o'sgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,2 % ni, fizik hajm indeksi 30,3 % ga kamayib, ishlab chiqarish hajmi 407,9 mlrd. so'mni tashkil etdi..



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish

14,9 %




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 95,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 115,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 2 790,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari
va ichimliklar ishlab
chiqarish

10,3 %



Oziq-ovqat mahsulotlari va
ichimliklar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi 6,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 100,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarda ulushi 10,3 % ni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 129,7 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1 936,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Rezina va plastmassa
buyumlar ishlab chiqarish

1,5 %

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab
chiqarish

2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 102,0 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 % ni, fizik hajm indeksi 15,8 % ga kamayib, ishlab chiqarish hajmi 275,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.





Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

0,2 %



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 115,1 % ni tashkil etgan. 2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 13,8 % ni va ishlab chiqarish hajmi 38,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

46,6 %

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida avtotransport vositalari, treylerlar, yarim tirkamalar ishlab chiqarishning ulushi 47,6% ni, uning fizik hajm indeksi esa 107,3% ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, ulushi 46,6 % ni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 113,4 % ni va ishlab chiqarish hajmi 8 717,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.






Elektr jihozlari ishlab chiqarish

3,3 %

Elektr jihozlari ishlab chiqarish


2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, electr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 128,8 % ni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,3 % ni, fizik hajm indeksi 168,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 619,7 mlrd. so‘nni tashkil etdi.



Hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, foizda


Jizzax viloyatida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush (Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmining yuqorifoiz ulushi) G‘allaorol tumani (50,0 %), Jizzax shahri (19,9 %) va Zafarobod (5,2 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.






**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsuloti
turlarini ishlab chiqarish
(yirik korxonalar bo‘yicha)**

Mahsulotlarnomi	O‘lchov birligi	2024 yil yanvar-sentabr	2023 yilning yanvar-sentabriga nisbatan foiz
Ishlab chiqaradigan sanoat			
Paxta xom-ashyoni qayta ishlash	t	-	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi	t	13 058,0	54,0
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 1 navli	t	7 777,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 2 navli	t	5 168,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 3 navli	t	112,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 4 navli	t	1,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 5 navli	t	-	-
Paxta chigit	t	19 965,0	95,7
Momiq	t	1233,0	102,4
Tozalangan o‘simlik yog‘i	t	9946,1	213,2
Chigitdan olingan kunjara va boshqa qattiq chiqindilar	t	74 740,7	92,5
Soapstoklar (neytrallash jarayoni mahsuloti)	t	681,0	94,7
Yangi so‘yilgan sovutilgan go‘sht	t	440,4	-
Yumshoq bug‘doy va spel’ta uni	t	9 668,7	100,3
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa (ko‘p komponentli aralashmalardan tashqari)	t	3 580,0	11,4
Mashinada yoki qo‘lda to‘qilgan boshqa trikotaj polotnolar	t	1 661,0	80,7
Portland sement	t	1 617 066,8	85,5
«KIA» avtomobili	dona	14 214	113,9
«CHERY» avtomobili	dona	5 619	76,6
«HAVAL» avtomobili	dona	1 803	-
Chakana savdo uchun qadoqlanmagan paxtadan yigirligan bir qavatlil ip	t	26 604,5	97,1



Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatning jami hajmidagi eng yuqori ulushi G'allaorol tumani (50,0 %), shuningdek Jizzax shahri (19,9 %) hissalariga to‘g‘ri keldi.





Aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga G‘allaorol tumani (46 165,6 ming so‘m), Jizzax shahri (17 547,8 ming so‘m) hamda Zafarobod (16 680,1 ming so‘m) tumanlarida o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichi (12 325,9 ming so‘m)dan yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Jizzax viloyati

5 430,7 ming.so‘m

2022-yil yanvar-sentabr



9 593,4 ming.so‘m

2023-yil yanvar-sentabr

12 325,9 ming.so‘m


2024-yil yanvar-sentabr

**Aholi jon boshiga sanoat
mahsulotlari ishlab chiqarish o‘sish
sur’ati, %**



■ o’sish sur’ati

■ hajmi




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi



Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4 387,3 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, ularning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 23,4 % ni tashkil etdi.




Hududlar bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da



Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4 387,3 mld. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, hududlar kesimida ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi Arnasoy (100,0 %), Yangiobod (100,0 %) va Sharof Rashidov (99,9%) tumanlarida yuqori ekanligini ko'rsatdi.




Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi Do'stlik (16,2 %), Zafarobod (7,5 %) hamda G'allaorol (1,5 %) tumanlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.





Sanoat tarmog‘ida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan
kichik biznes korxonalarini, birlikda
2024-yil 1-oktabr holatiga

■ Faoliyat ko‘rsatayotgan ■ Yangi tashkil etilgan



Hududlar miqyosida olib qaralganida, sanoat tarmog‘ida yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalarining asosiy qismi Jizzax shahri (179 ta), Zomin (103 ta), G‘allaorol (99 ta) va Sharof Rashidov (92 ta) tumanlarida kuzatildi.

Shuningdek, Baxmal (83 ta), Zarbdor (51 ta), Do‘stlik (40 ta), Forish (37 ta), Paxtakor (34 ta), Mirzacho‘l (27 ta), Arnasoy (27 ta), Zafarobod (25 ta) va Yangiobod (12 ta) tumanlarida ham sanoat tarmog‘idagi yangi tashkil etilgan korxonalar faoliyat yuritib kelmoqda.